

## ENANTIOSEMIYANING GENDEROLOGIK TADQIQI

*Abdulazizova Navruza*

*AVPYMO'MM Tillarni o'qitish metodikasi*

*kafedrasi o'qituvchisi*

Gender hodisalarining nutqiy muloqot va lisoniy faoliyatda voqelanish jarayoni boshqacha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan lisoniy hodisalar bilan mushtarakdir. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq.

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ilmiy adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha talqini mavjud. Gender – inglizcha “gender” – “zot” so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi.<sup>1</sup> Shu bois erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Demak, inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida bilan muomalasi, nutqi, va hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Sofya Babayan bu haqda: “Gender ijtimoiy tushuncha. Ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan, xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy an'analari, etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi” – deb yozadi.

Gender – umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi farq. Ikkala jins vakillari nutqiy hulqini jahon tilshunosligida nemis olimi Joul Oates o'zining “ayol, erkak va til” asarida ham ayol va erkaklarning nutqidagi o'zaro farqlanuvchi jihatlarni ochib beradi. U ko'proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy konatassiyalarni olib, o'zaro qiyoslab gender nuqtai nazardan taxmin qiladi.

Hozirgi kundagi gender muammosiga oid tadqiqotlarni V.A.Kirilina<sup>2</sup> ikki yo'nalishga ajratadi:

<sup>1</sup> Э.Гидденс Социология. – Т. “Шарқ”. 2002., 185-бет.

<sup>2</sup> Қаранг: Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гост.ун-т, 2003. –с.132-138.

1. Gumanitar fanlar doirasida gender muammosi. Bunda sotsiologiya, psixologiyada o'rganilgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun asos bo'ladi. Genderning kategoriya sifatidagi va antologik maqomi o'rganiladi.

2. Lingvistik genderologiya yoki gender lingvistikasi muammosi. Gender lingvistikasi – ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlari tarkibiga kirib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi.

Bundan tashqari lingvistik genderologiya har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga, ya'ni tushunchalar apparati kategoriyalari aniq shakllanmagan yangi yo'nalishdir.

Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarning ilmiy yo'nalishlarini almashinishi bilan bog'liq holda XX asrning oxirgi 10 yilliklariga to'g'ri keladi. Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki guruh savollarni o'rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi: leksika, sintaksis, rod kategoriyasi va qator bo'limlarda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvning maqsadi tilda turli jinsdagi odamlarning tilini ifodalanishi, erkak va ayollarga qanday baho berilishi hamda qaysi semantik oblastlarda ularning ko'proq tarqalganligi, buning asosida qanday lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

2. Genderning nutqda yuzaga chiqishi: gender qanday vositalar va qanday kontekstlar yordamida ifodalanayotganligi, bu protsessga ijtimoiy faktorlar va kommunikativ vositalar qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Hozirgi vaqtgacha bu sohada ijtimoiy determinizm nazariyasi va biodeterminizm nazariyalari raqobat qilib kelmoqda.

Gender lisoniy tahlil obyektiga aylanan ekan u haqidagi xulosa genderning faoliyat turiga qarab pedagogik, sotsiologik, iqtisodiyot yoki huquqshunoslik kabi sohalardagi faoliyatidan kelib chiqib beriladi. Aynan shu hukm genderning enantiosemiyaning yuzaga kelishidagi o'rnini ham ko'rsatib beradi.

Pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi o'qituvchi va murabbiylarimizning nutqida uchraydigan lisoniy birliklarni kuzatar ekanmiz genderologik jihatdan ular nutqida o'ziga xosliklarni ko'rishimiz mumkin. Ayol va erkak pedagoglar nutqidagi o'ziga xosliklar bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan enantiosemik birliklar o'rtasida ham kuzatiladi. Masalan, erkak pedagoglar o'zlarining faoliyati davomida *majlis, doklat, alloma, avliyo, taqsir, professor, a'lochi, daho*, kabi so'z va iboralarni, ayol muallimalar esa *jinni, o'lik, a'lochi, faol, chaqqon* kabi so'zlarni enantiosemik ma'noda qo'llaydilar. **Professor** oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy hodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. - *Aburaimov, mayli, mayli... Bemalol!... – Uzr, ustoz! – Urz so'ramang, professor, siz men endi o'tayotgan darsni o'zlashtirib bo'lgansiz, shekilli. Men bilmay bezovta qildim (Jonli muloqotdan). Bu*

*talaba ham guruhning a'lochisi, shuning uchun doim qayta topshirishga qolib ketadi(Jonli muloqotdan). Hafa bo'lmang. Nosirova o'zi shunaqa o'lik(Jonli muloqotdan).*

Sotsiologik jihatdan gender tadqiq qilinar ekan, bunda so'zlashuv nutqida erkak va ayol nutqida uchraydigan o'ziga xos lisoniy birliklar e'tibor markazimizda turadi. Diskursda erkak va ayol nutqi jinsidan va tabiatidan kelib chiqib farq qiladi. Bu farq nutq jarayonida so'zlovchining vaziyati va maqsadi asosli o'laroq yuzaga keluvchi enantiosemiya hodisasida ham ko'rinadi. Ayollar o'z nutqida yuqorida aytib o'tilgandek hushmuomilalikka intilar ekan iltifot yuzasidan aytilgan *judayam mazali, mayli, hursandman, voy mazza qildim, yahshida, judayam yahshi*, kabi ijobiy ruhdagi so'zlarni va *ajab bupti, yo'q, yashshamagur, it, hayvon, yetim, iflos, pes, dahshat* kabi salbiy ruhdagi yoki qo'pol so'zlarni asl ma'nosiga zid tarzda qo'llaydi. Keltirilgan so'zlar erkaklar nutqida *kuzatilmaydi* desak to'g'ri bo'ladi, chunki erkaklar *yo'q, itvachcha, haromi, dahshat, ho'roz, mol* kabi salbiy ma'nodagi so'zlarni ijobiy ma'noda yoki *ha, go'zal, kuchli, pahlavon, qahramon, do'st* kabi ijobiy ma'nodagi so'zlarni asl ma'nosiga zid qo'llashlari mumkin. Bu holatlar esa erkak va ayollar nutqining o'ziga hos jihatlarini ko'rsatadi. *So'fi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yahtagini olisdan turib kartga irg'itdi va o'zini oddiy ovozi bilan: \_ Qanjiqlar! – deb baqirdi. – Yosh narsalar o'ynashsa nima bo'пти? Muncha endi zabtiga oldingiz? – dedi Qurvonbibi. – Gapirma, eshak!* (Cho'lpon “Kecha va kunduz”). Misolda So'fi tilidan keltirilgan “qanjiq” so'zi ayollarga(insonga) nisbatan qo'llangan bo'lib, bu so'z aslida “ayol bo'ri”, “ayol it” ni ya'ni hayvonni bildiruvchi so'zdir, ammo asarda “qanjiq” (hayvon)shakli orqali ayol (inson) ma'nosi tushunilgan. Yoki yana shu misolda keltirilgan “eshak” so'zini olaylik, bu so'z ham asarda So'fi (erkak) tilidan ayolga (insonga nisbatan) qo'llangan. Bundan tashqari erkaklar tilida yana *it, mol, sher, ilon, chayon, ho'roz* kabi hayvon va jonzotlar insonni ifodalash uchun qo'llanadi.

*Qurvonbibi erining qarshisiga borib o'tirgach, So'fi davom etdi:*

- *Juvonmarg Zebing qishloqqa borib ashulani yuzga qo'yganga o'xshaydi. Qishloq odamlaridan ko'p gaplarni eshitdim. Omalekin tutib olib o'ldirsam ozlik qiladi juvonmaringni!* (Cho'lpon. “Kecha va kunduz”). Juvonmarg so'zi O'zb. tilining izohli lug'otida “yosh, bevaqt o'lgan” asl ma'nosi va “o'lgur, yer yutkur” ma'nosidagi ko'chma ma'nolar uchun qo'llanilishi aytib o'tilgan. Biz keltirgan misolda esa “juvonmarg” so'zi enantiosemik so'z hisoblanib “yosh, bevaqt o'lgan” ma'nosida emas, unga zid hali o'lmagan, tirik insonga nisbatan qo'llangan qarg'ish so'z orqali ifodalangan enantiosemik so'zdir.

Ayollar nutqida uchrab turuvchi “iflos” so'zi ham asl ma'nosiga zid holda erkalash uchun hizmat qilishi mumkin. Masalan, *Voy ifloos, qachon olding bu*

*ko'ylakni? Zo'r yarashipti! Ochilib ketibsan(Jonli muloqotdan).* Mazkur gapda “iflos” so'zi ijobiy-subyektiv baho uchun hizmat qilgan. *Otxona ichidan iflos kurak va supurgi ko'tarib Jo'ra chiqdi(Oybek, Tanlangan asaralar).* Bu gapda esa “nopok narsalar bilan bulg'angan” ma'nosi, ya'ni asl ma'nosi uchun hizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida enantiosemiyaning gender xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar kesimida muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гост.ун-т, 2003.
2. Giddens E. Sotsiologiya. – T. “SHarq”. 2002., 185-bet.